

Boyqulova Sevara Muhiddinovna

Termiz davlat universiteti O`zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o`qitish: O`zbek tili ta`lim yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatidagi joy nomlarining etimologiyasi, nomlanishi va ularning tarixi bayon etilgan. Unda joy nomlarini lingvistik tahlil qilish bilan birgalikda ularning shu kungacha qanday nomlar bilan atalgani va qanday o`zgarishlarga uchragani haqida ma`lumotlarga uchragani haqida ma`lumotlarga ham ega bo`lamiz.*

Kalit so`zlar: *Toponimlar, qishloq, shahar, qo`rg`on nomlari,*

Toponimlar muayyan bir hudud joy nomlari majmui. Toponimlar xalqimiz me`rosi ularning etnik kelib chiqish tarixi va hududlarning qay tarzda nomlanishi hisoblanadi. Toponimlarni o`rganish ajdodlarimiz davridan boshlanadi. Toponimlarni o`rganish siz-u bizga tariximizni tilshunosligimizni o`rgatadi. Ularni o`rganing ming yillik tarixga borib tarqaladi. Istiqlol yillaridan keyin toponimlarning olimlarimiz tomonidan yangidan yangi nomlari ishlab chiqildi va tilshunoslarimiz tomonidan bu nomlar tahlil qilinib chiqildi.

Toponim yunoncha “topos” “onyma” so`zlaridan tarkib topgan. Toponim atamasi joy nomi degan ma`noni anglatadi. Joy nomi deganda aholi yashash joyi, qishloq, shahar, tuman, qir, adir, tog`, cho`qqi, qo`rg`on kabilarni tushuniladi. Toponimlar lug`ati til boyligini oshiradi. Toponimlarni lingvistik tahlil qilish orqali ularning nomlari kelib chiqishi bilan bog`liq bo`lgan leksik, morfologik tuzilishi o`rganiladi.

Respublikamizning barcha tuman va viloyatlarining kelib chiqish tarixi mavjud. Surxondaryo viloyatining Boysun tumani “boy” so`zi tog` nomlari tarkibida **muqaddas, ulug`, katta**, ma`nosiga ega. Tog`ga sig`inish tog` kulti asosida ulkan tog`lar nomlangan.

To`ra Nafasova va Vazira Nafasovalarning “O`zbek tili toponimlar o`quv izohli lug`ati”da Boysun qadimgi turkiy boy/bay/poy, pay; moy/may/umay/ulug`, buyuk, muqaddas, katta sin/sun/shin, chin/ulkan tog`, katta tog`. Tog` nomi tuman nomiga o`tgan deb keltiriladi. ”Baysin” so`zi “bay” so`zining shevaga moslashib ketishi va “sin” so`zining tilimizda “sun” so`zi bilan fonetik o`zgarishga uchrashi natijasida Boysun holatiga kelgan bo`lishi mumkun. Tilimizda toponimlar qo`shma va yasama so`zlarni boyitib boradi. Shu o`rinda Surxondaryo viloyatimizning ba`zi tuman va qishloq, mahallalari; Jarqo`rg`on, Qumqo`rg`on, Sherobod, Xo`jaulkan, Sariosiyo, Tillakamar, Besherkak, Oltinsoy, va viloyatimizning Qiziriq tumanidagi qishloq va mahallalari: Yetimqum, Shabada, “Do`stlik” mahallasi, “Yangi turmush” mahallasi va savhoz nomi bilan ataluvchi qishloqlari; Yettinchi sovhoz, o`ninchi sovhoz, O`n birinchi sovhoz, Kunchiqar, Mingchinor kabi qishloq va mahallalar nomi bor. Yetimqum “yetim”,

“etim” soʻzlari otadan, onadan yoki har ikkovidan ajralgan yaʼni Surxondaryoning baʼzi shevalarida yolgʻiz qolgan degan maʼnoni anglatadi, “qum” esa tepalik, doʻnglik maʼnosida keladi. “Yetimqum” soʻzini lingvistik jihatdan qilinsa bu soʻz qoʻshma soʻz hisoblanib yasama soʻzning kompozitsiya usulida birikkan turiga olamiz. Kunchiqar, Mingchinor, Jarqoʻrgʻon Qumqoʻrgʻon, Oltinsoy toponimlari oʻz nomidan ham bilishimiz mumkinki, Mingchinor chinorlar koʻpligi bilan nomlangan. Shu oʻrinda bir fikrni ayta olamiz, Mingchinorni Koʻpchinorlar qishlogʻi deb atasa ham boʻlar edi. Har ikkisida ham chinorlar koʻpligi anglashilib turibdi. Mingchinor mazmun va maʼno jihatdan xalqqa tushunarli va nutqiy maʼnoga ega. “Koʻpchinorlar” qishlogʻi toponimida nutqiy gʻalizlikni sezamiz. “Kunchiqar” esa pastlikda joylashganligi va kunning oʻsha yerdan chiqqanligi sababli kunchiqar deb nomlangan. Va ikkinchi qismi qoʻrgʻon soʻzi shaklidagi toponimlar Jarqoʻrgʻon, Qumqoʻrgʻon. Bu toponimlar “jar va qum” leksemalarining qoʻrgʻon soʻzi bilan kompozitsiya usulida birikuvida tashkil topgan. “Jar “ leksemasining lugʻaviy maʼnosi suv yuvib hosil boʻlgan tik chuqurlik. Qadimgi turkiy tilda “yar” tarzida talaffuz qilingan, keyinroq soʻz boshlanishidagi y undoshi jundoshiga almashgan deb “ Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”da keltirib oʻtiladi. Y undoshi keyinchalik ch undoshiga ayalanib char tarzida talaffuz qilib yozilgan. Vaqtlar oʻtishi bilan tilshunoslar tomonidan char soʻzi jar shaklida talaffuz qilib yozilishi maqbul qilib olingan va xalq tiliga, imloga singishib ketgan.

Surxondaryo viloyatining Termiz shahri va uning atrofida mavjud boʻlgan Botikar (Botakar), Ruxshabuz (Ruxshayuz) Sarmangan , Charmangan (Jarmikon)kabi qishloq va shaharchalar tomonida “Tarmiz “(baʼzida Turmuz) shakllarida talaffuz etilishi haqida S.Norqobilovning “Surxon vohasining tarixiy toponimikasi va geografiyasiga doir maqolasida keltirib oʻtilgan. Toponimlarni geografik xususiyatlarini tahlil qilishda mashhur oʻzbek olimlari : Suyun Qorayev, R. Musin, X. rahmatullayev, A Gʻ. Gʻulomov, Sh. Abdurahmonov, F. A . Abdullayev, Sh. R. Rahmatullayeva va boshqalar.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, toponimlar maʼlum bir xalqning yashash tarzi , shu hududning tabiati va xalqning shevasiga moslashib, lingvistik tahlillar bilan tilimizga singib ketadi. Toponimlarni yaratishda shu tilga mos lingvistik vositalardan foydalanamiz. Toponimlar xalq ijodi va maʼnaviyatining bir yo ikki soʻzda yozilgan tarixi, eng qisqa tarixiy manbalardir.

Toponimlar tilshunosligimizda hozirgacha oʻrganilib kelinmoqda va ularning har birini oʻz kelib chiqishi tarixi oʻrganilmoqda. Shu oʻrinda toponimika tilshunoslarimiz tomonidan bir necha guruhlarga boʻlib oʻrgangan va ularni oʻz tasniflari bilan kitobxon va oʻquvchilarga taqdim etgan. Toponimika shaharlar, qishloqlar,daryolar, koʻllar, togʻlar kabi geografik nomlarni ularning kelib chiqishini tarixini oʻrganar ekan, bu fan geograflarga ham tilshunoslarga ham tarixchilarga ham boy ilmiy material beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'ra Nafasov va Vazira Nafasova "O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati" Toshkent "Yangi nashr avlodi" 2007. 69-b.
2. Tursunov.S O'zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi. Termiz-Surxon - nashr, 2017. 188-b.
3. Qorayev S. O'zbek toponimlari, 1970. 117-b.
4. Sh.Rahmatullayeva."Toponimlar lug'ati"1978. 340-b.